

## O‘ZBEKCHA-KOREYSCHA TARJIMALARDA O‘XSHATISHLARNI TARJIMA QILISH USULLARI

**Olmosxon Erkaboyevna Niyozova**

Jahon iqtisodiyoti va Diplomatiya universiteti

[olmosniyozova362@gmail.com](mailto:olmosniyozova362@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqot ishida hozirgi o‘zbek adabiy tilida o‘xshatishlarni tarjima qilish usullarining koreys tilida qanday ishlatilishi bayon etilgan. Bunda asliyat va tarjima matnlarini qiyosiy o‘rganish natijasida o‘xshatishlarni qanday usullari mavjudligi va bu usullar orqali yasalgan so‘zlar tarjimalari chuqur tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlari:** o‘xshatish, to‘la ekvivalent, muqobil o‘xshatish, adekvatlik, tasviriy usul, kalka

### ABSTRACT

This paper describes how the methods of translating analogies in modern Uzbek are used in Korean. A comparative study of the original and translated texts provides an in-depth analysis of the methods of analogy and the translations of words created by these methods.

**Keywords:** analogy, full equivalent, alternative analogy, adequacy, pictorial method, kalka

### KIRISH

Asliyat va tarjima matnlarini qiyosiy o‘rganish natijasida o‘xshatishlarni quyidagi yo‘llar vositasida tarjima qilinganligini ko‘rish mumkin:

1. O‘xshatishlarni to‘la ekvivalent vositasida tarjima qilish
2. O‘xshatishlarni muqobil o‘xshatish vositasida tarjima qilish
3. O‘xshatishlarni tasviriy usulda tarjima qilish
4. O‘xshatishlarni kalka usulida tarjima qilish.

### O‘xshatishlarni to‘la ekvivalent vositasida tarjima qilish

Lingvomadaniyatlarining aksariyatida turg‘un o‘xshatishlarni obraz va uning mazmuni jihatidan bir-biriga muqobilligi, muqoyasa obyektlarining o‘xshashligiga guvoh bo‘lamiz. Xalqlarning ko‘pgina xislat-xususiyatlarga nisbatan qarashlarining, munosabatlarining aksariyat hollarda bir-birlarinikiga o‘xshashligi ularning tillaridagi

o'xshatish etalonlarining ham bir xil timsoliy mazmun kasb etishiga sabab bo'ladi. Bunday holat, ayniqsa, genetik jihatdan qardosh xalqlar tillari ifoda vositalari o'rtasida ko'proq ko'zga tashlanadi. Bu mazkur xalqlarning tarixiy sharoiti va takomili jarayonidagi umumiy muvofiqliklar bilan belgilanadi.

Turli xalqlar o'xshatish etalonlarining bir-biriga har jihatdan o'xshashligi aksariyat hollarda xalqlar turmush sharoitlari, urf-odatlar va mantiqiy mushohadalaridagi mushtaraklik bilan izohlanadi. Binobarin, koreys va o'zbek tillarining bir oilaga mansubligi, bu tillar sohiblari dunyo qarashlari, mentalitetlari, turmush sharoitlarining mushtarakligi tufayli ularning lafzlarida ko'pgina umumiy o'xshatish etalonlarini kuzatish mumkin.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Jumladan, o'zbek tilidagi **guldek** qizarmoq o'xshatishi baxtiyorlik, xursandlikni tasvirlashga xizmat qiladi. Ayni ma'no va tasvir uchun koreys tilida uning **꽃처럼 발갛게** to'liq ekvivalentidan foydalaniladi. Qiyoslang:

Bu voqea shaharga tarqalibdi. Podshoh va Qorabotir, uning singlisi va Tohirning xolasi mozorga kelishibdi. Tohirning go'riga qarabdilar. Zuhraning soch piligi go'rga qisilib qolganini ko'rib, go'rni ochibdilar. Qarasalar, ikki oshiq-ma'shuq qizil **guldek qizarib**, qosh-ko'zlari suzilib, yonma-yon yotishgan emish. Ularni ko'rgan kishi shirin uyquda yotibdi deb xayol qilar ekan (Tohir va Zuhra. **한국인을 위한 우즈베크 전래 동화 모음집 우즈베크 이야기** 2014. –B. 283).

Tarjimasi:

이 일이 도시에 퍼졌다. 임금과 코라보트르, 그의 여동생과 토히르의 고모가 묘지에 왔다. 토히르의 무덤을 보니 주흐라의 머리카락 한 올이 빠져 있는 걸 보고 무덤을 파보았다. 그들이 보니, 두 사람은 서로 껴안고 있었다. 둘은 붉은 **꽃처럼 발갛게** 눈썹과 눈이 감긴 채 같이 누워 있었다. 둘은 본 사람들로 하여금 그저 달콤한 잠에 빠져있는 거라는 생각이 들게 만드는 모습이었다 (한국인을 위한 우즈베크 전래 동화 모음집 우즈베크 이야기 2014. –B. 262).

O'xshatish obyektlarining o'zaro mosligi tillarda muqoyasaviy umumiylikning mavjudligidan dalolat beradi. Binobarin, badiiy muqoyasa asosida hosil bo'lgan

koreys va o'zbek tillarining o'xshatish etalonlariga nazar tashlar ekanmiz, ularning ko'pchiligida muqoyasa obyektlarining mosligiga guvoh bo'lamiz:

### **O'xshatishlarni muqobil o'xshatish vositasida tarjima qilish**

Tarjima tilida asliyatda qo'llanilgan o'xshatishga ekvivalent o'xshatish topilmagan taqdirda, adekvatlik ko'p hollarda muqobil variantlar yordamida amalga oshiriladi. Masalan:

Onam og'ir xo'rsindi. O'pkasi to'lib yig'lay boshladi. Xolamni yig'lay-yig'lay ko'rpaga yotqizdi. Xolam ancha vatqgacha xuddi tomog'ida **bir siqim balg'am borday** uzluksiz yo'taldi. Uyqum ochilib vujudim quloqqa aylangan edi. So'ng bari bir uxlab qolibman (XX asr o'zbek hikoyalaridan).

Bu o'rinda uzluksiz yo'talish holatini bo'rttirib tasvirlash uchun xuddi tomog'ida **bir siqim balg'am borday** o'xshatishli konstruktsiya berilgan. Uning tarkibidagi **bir siqim** hisob so'zi qiyosni bo'rttirishga, "xuddi" aniqlov yuklamasi esa chog'ishtirish, qiyosni yanada aniqlashtirishga, o'xshatish ma'nosini kuchaytirishga xizmat qilgan.

Mazkur o'xshatishli konstruktsiya koreys tiliga **마치 목에 무엇인가 막혀버렸을 듯** - xuddi tomog'iga **bir narsa tiqilib qolganday** shaklidagi muqobil variant bilan tarjima qilingan. Qiyoslang:

어머니께서는 한숨을 하시고 갑자기 울기 시작하였다. 그리고 울상을 지으며 작은 어머니를 재우셨다. 작은 어머니는 마치 목에 무엇인가 막혀버렸을 듯 오랫동안 콜록콜록 기침을 해 댔다. 나도 이런 말을 들어서 밤늦게까지 자지 못 했다. 하지만 결국 잠이 들었다 (XX asr o'zbek hikoyalaridan세기 우즈베키스탄 소설 선집. T. -2014. B.181).

Tasvirlanayotgan shaxsning ruhiy holati, orzu-umidlari, o'y-kechinmalarini berishda o'xshatishlar muhim vosita hisoblanadi. Binobarin, G'. G'ulom "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasida "qora buvi"ning ruhiy holati, o'y-kechinmalarini, xususan, uning to'rtta yetimning kelajagidan tashvishlanishi, xavotir olishini **garangday** dovdirab yurmoq va **mizg'iganday** qush uyquasi qilmoq o'xshatishlari vositasida juda ta'sirchan qilib yoritib bergan:

### **O'xshatishlarni tasviriy usulda tarjima qilish**

Tarjima jarayonida muayyan o'xshatishni ekvivalenti ham, muqobil varianti ham topilmaganda tarjimon tasviriy usulga murojaat qiladi. Ushbu usul yordamida

o'xshatishning ma'nosi bevosita, ot + sifat, sifat + ot, ravish + fe'l va h.k. ko'rinishidagi so'z birikmalari vositasida tushuntirishga harakat qilinadi. Masalan:

G'orning ichidan **boshi xumday, uzunligi xariday** bir narsa o'rmalab, bular sari kela boshladi. O'rtancha botir supadan tushib, qo'riqning narigi tomoniga qarab qochdi. Odam borini bilib chiqqan ajdar, o'rtancha botirga qarab yugurdi. Botir chap berdi va ajdar sultonning dumiga qilich bilan urib, uni yaraladi. Ajdar sulton aylanib qoldi. Yana poylab turib, ustalik bilan uning beliga qilich soldi, yarasi og'irlashib, hansirab qoldi, shu choqda yana urib, ishini tugatdi. Terisidan bir tasma olib, ichidan beliga bog'lab oldi. Hech narsa ko'rmaganday bo'lib, supaga borib o'tirdi (Uch og'a- ini botirlar. 한국인을 위한 우즈베크 전래 동화 모음집 우즈베크 이야기 2014. – B.191).

Qayd etilgan parchada tasvirni yanada kuchaytirish maqsadida ikkita o'xshatish ketma-ket berilgan: boshi **xumday**, uzunligi **xariday** bir narsa. Boshi **xumday** o'xshatishi, asosan, odamlarning, hayvonlarning boshini juda kattaligini ifodalash uchun ishlatiladi. Xumbosh, xumkalla qo'shma so'zlari ham aynan shu ma'noda qo'llaniladi. Uzunligi **xariday** o'xshatishi "juda uzun" ma'nosini anglatadi. O'zbek xalqining o'ziga xos moddiy madaniyatida xum – biror suyuqlik, don va sh.k. saqlash uchun ishlatiladigan idish, xari – imorat to'sinlari ostidan ko'ndalanggiga qo'yiladigan uzun, yo'g'on asosiy yo'g'och vazifasini o'taydi. Shuning uchun ham xum va xari so'zlari bilan yasalgan o'xshatishlar tarjima matnida **머리가 크고 - boshi katta, 괴장히 긴 뿔가가 - nihoyatda uzun** bir narsa, deb tasviriy usul bilan ifodalangan:

동굴 안에서 머리가 크고 괴장히 긴 뿔가가 이쪽을 향해 기어왔다. 사람의 냄새를 맡고 나온 용은 둘째를 보고 쫓아갔다. 둘째가 피하면서 용왕의 꼬리를 검으로 찔렀다. 용왕의 허리를 찌르고 다시 때를 틈타 한 번 더 찔러 죽였다. 둘째는 용의 가족으로 허리띠를 만들어서 허리에 차고, 아무 일도 없었던 것처럼 평상에 와서 앉았다. 세 번째로 막내가 보초 설 차례가 왔다. 혈들은 잠을 잤다. (한국인을 위한 우즈베크 전래 동화 모음집 우즈베크 이야기 2014. – B.171.)

Odatda, o‘zbek lingvomadaniyatida oy etaloni bilan bog‘liq o‘xshatishlar chiroyli, go‘zal ayollarni tasvirlash uchun qo‘llanilsa-da, ba‘zan yigit kishining ham mazkur o‘xshatishning subyektivi sifatida kelishi kuzatiladi:

Onam xolamni erkalatgan bo‘ldi, boshini siladi, xolam ham erkalangandek jim yotardi. Beshikdagi singlim uxlab bo‘lgach, onam xira moychiroq yorug‘ida xolamning iyagidan mehribonlik bilan ushladi.

– Mixli qaynimning senda ko‘ngli bor, meni ko‘rsa taysallab qoladi, – dedi.

Xolam cho‘chib tushdi.

– Gapirmang, – dedi.

– Nimaga, **oyday yigit**. Kasbi bor, qo‘li gul.

– Men yetmish bir kundan keyin o‘laman, – dedi xolam qat‘iy ovozda (XX asr o‘zbek hikoyalaridan).

Ushbu parchadagi **oyday** yigit o‘xshatishi Mixlining chiroyli yigit ekanligini ta’kidlashga xizmat qilgan. Koreys tilida **oyday** o‘xshatishining yigitlarga nisbatan qo‘llanilishi me’yoriy hol bo‘lmahanligi sababli, uni **멋진 놈**, ya’ni “chiroyli yigit” deb sifat + ot ko‘rinishida tarjima qilingan:

어머님께서 작은 어머니를 응석하시고 있을지도 몰랐다. 어머님께서서는 정다운 마음씨로 작은 어머니의 턱을 어루만지면서 말씀하셨다,

“우리 남편의 남동생인 미힐리는 네 사랑에 빠져 있어요. 날 봤을 때면 언제나 어쩔 바 모르게 되어 버릴거야!”

“말하지 마세요, 언니!”

“왜요? 멋진 놈이지! 심지어 직업도 있잖아.”

“언니, 난 칠십 일 후 죽을 겁니다!” (XX asr o‘zbek hikoyalaridan세기 우즈베키스탄 소설 선집. T., 2014. B.180).

“**Oyday**” o‘xshatishining yigitlarga nisbatan qo‘llanilishini o‘zbek xalq ertaklarida ham uchratish mumkin. Zero, xalq ertaklari o‘xshatishlar xazinasi, manbasi hisoblanadi. Ertak qahramonlarining tashqi qiyofasi, ko‘rinishi, ularning turli holatlari va xatti-harakatlari o‘xshatishlar vositasida xalqona aks ettiriladi.

### **O‘xshatishlarni kalka usulida tarjima qilish**

Har bir lingvomadaniy jamoaning dunyoni o‘ziga xos tarzda aks ettirishi tabiiy holdir. Shu nuqtayi nazardan muayyan lingvomadaniyatdagi o‘xshatish va muqoyasa

birliklari hayotdagi barcha jihatlarni to'liq qamrab ololmasliklari, o'zga madaniyatga xos bo'lmasligi, boshqa tilda o'z ekvivalentiga yoki muqobil variantiga ega bo'lmasligi mumkin. Bunday holda ko'proq tarjima amaliyotining kalka, ya'ni so'zma-so'z tarjima usuliga murojaat qilinadi.

Xotin:

-Bir ko'zingni o'yib bersang, bir non beraman, - debdi. Qiz hayron bo'libdi. Indamay o'tiribdi. Qizning qorni juda och ekan, u toqatsizlanib yana non desa, xotin avvalgi gapini qaytaribdi. So'ngra qizga **shaftoliday non** berib, uning ko'zini o'yib olibdi. Keyin qiz yana non so'rabdi (Kulsa – gul, yig'lasa – dur. 한국인을 위한 우즈베크 전래 동화 모음집 우즈베크 이야기 2014. –B. 62).

Tarjimasi:

여자는

“네 눈 한쪽을 주면 논 한 개를 주지.”라고 했다. 소녀는 깜짝 놀랐다. 그래서 아무 말 않고 앉아 있었다. 소녀는 몹시 배가 고팠다. 그래서 참을 수가 없어서 논을 달라고 란 번 더 말하자, 여자는 또 같은 말을 반복했다. 그다음에 소녀에게 **복숭아만 한 논**을 주고 나서 소녀의 눈을 뽑아버렸다. 그리고 나서 소녀는 또 논을 달라고 했다 (한국인을 위한 우즈베크 전래 동화 모음집 우즈베크 이야기 2014. –B. 53).

O'zbek tilidagi **shaftoliday non** o'xshatishi koreys tiliga so'zma-so'z tarjima qilingan: **복숭아만 한 논**. Aslida koreys tilida nonga **빵** deyiladi. Yuqoridagi paragrafda non so'zi **빵**, ya'ni “non” deb tarjima qilingan bo'lsa, mazkur kontekstning tarjimasida aynan o'zbek tilidagiday **논** “non”, deb berilgan.

Kalka usulida o'girilgan o'xshatish tarjima tilida qiyosiy mazmun va shakl kasb etib, tabiiy jaranglasa, nazarda tutilgan o'xshatish obyekt va o'xshatish subyekt o'zaro muvofiq bo'lsa, u holda nafaqat adekvatlik ta'minlanadi, balki tarjima tilining lug'at tarkibi yangi bir o'xshatish bilan boyitiladi.

Misol uchun, “biron narsadan seskanish, cho'chish” holatini qizigan temirga tegib ketishga qiyoslanishi tabiiy hol sanaladi. Ushbu muqoyasani koreys tiliga

soʻzma-soʻz tarjima qilish matni tushinishda nomuvofiqlik keltirib chiqarmaydi. Chunki, tasvirlanayotgan qiyos koreys lingvomadaniyati uchun ham xosdir.

## XULOSA

Oʻxshatishlar bir tildan ikkinchi bir tilga turli-tuman usullar vositasida, xususan, toʻla ekvivalent, muqobil oʻxshatish, tasviriy va kalka usulida tarjima qilinadi. Mazkur usullar orasida eng koʻp tarqalgani tasviriy usuldir. Chunki, ayrim oʻxshatishlarda milliy xos soʻzlar ham oʻz aksini topib, ular majoziy maʼno kasb etadi. Ularni boshqa milliy xos soʻzlar kabi transliteratsiya usulida talqin etishning ham iloji boʻlmaydi. Bunday hollarda ham tasviriy usulga murojaat qilinadi. Baʼzan tarjimada oʻxshatishlar tushirib qoldiriladi. Ayrim holatlarda asliyatdagi turgʻun yoki erkin birikmalar tarjima tilida oʻxshatishlar vositasida ifodalanadi.

Turli xalqlar oʻxshatish etalonlarining bir-biriga har jihatdan oʻxshashligi aksariyat hollarda xalqlar turmush sharoitlari, urf-odatlar va mantiqiy mushohadalaridagi mushtaraklik bilan izohlanadi. Binobarin, koreys va oʻzbek tillarining bir oilaga mansubligi, bu tillar sohiblari dunyo qarashlari, mentalitetlari, turmush sharoitlarining mushtarakligi tufayli ularning lafzlarida koʻpgina umumiy oʻxshatish etalonlarini kuzatish mumkin. Tarjimada bunday mushtarak, yaʼni toʻliq ekvivalentga ega boʻlgan oʻxshatishlar deyarli muammo tugʻdirmaydi.

Tarjima tilida asliyatda qoʻllanilgan oʻxshatishga ekvivalent oʻxshatish topilmagan taqdirda, adekvatlik koʻp hollarda muqobil variantlar yordamida amalga oshiriladi. Bunda asliyat tilidagi oʻxshatish obyekti tarjima tilidagi muqobil oʻxshatish obyekti bilan almashtiriadi.

Tarjima jarayonida muayyan oʻxshatishni ekvivalenti ham, muqobil varianti ham topilmaganda tarjimon tasviriy usulga murojaat qiladi. Tasviriy usulda unda oʻxshatishning maʼnosi bevosita, ot + sifat, sifat + ot, ravish + feʼl va h.k. koʻrinishidagi soʻz birikmalari vositasida tushuntirishga harakat qilinadi.

Har bir lingvomadaniy jamoaning dunyoni oʻziga xos tarzda aks ettirishi tabiiy holdir. Shu nuqtayi nazardan muayyan lingvomadaniyatdagi oʻxshatish va muqoyasa birliklari hayotdagi barcha jihatlarni toʻliq qamrab ololmasliklari, oʻzga madaniyatga xos boʻlmasligi, boshqa tilda oʻz ekvivalentiga yoki muqobil variantiga ega boʻlmasligi mumkin. Bunday holda koʻproq tarjima amaliyotining kalka, yaʼni soʻzma-soʻz tarjima usuliga murojaat qilinadi.

## REFERENCES

1. XX аср ўзбек ҳикояларидан намуналар. –Тошкент: ТошДШИ, 2012.
2. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка – М.-Л., 1960.
3. Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларини излаб...// Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2012. -№ 5. –Б. 3-16.
4. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти. № 3. –Тошкент, 2011.
5. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар ва миллий образ // Ўзбек тили ва адабиёти. № 1. – Тошкент, 2013.
6. 세기 우즈베키스탄 소설 선집. T., 2014.
7. 한국인을 위한 우즈베크 전래 동화 모음집 우즈베크 이야기. 2014.